

FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

www.academicsbook.com

Vol: 1 Issue: 3 (2024)

O'ZBEKISTON HUDUDIDA YO'QOLIB BORAYOTGAN BALIQLAR

Nizomova Bashoratxon

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Muhammadjon Xosilov Xakimjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. O'zbekistonning suv havzalari, noyob va yo'qolib borayotgan baliq turlarini o'z ichiga oladi, ularning aksariyati antropogen omillar va ekologik muammolar sababli xavf ostida. Ushbu ishda orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryo havzalari baliqlarining biologik xilma-xilligi, ularni yo'qolishdan asrash, muammolari va yechimlari muhofama qilinadi. Noyob baliq turlarini muhofaza qilish orqali mintaqaviy ekotizimlarning barqarorligini ta'minlashga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Amudaryo sumbali, Amudaryo sturgoni, ekologik muhofaza, suv resurslari, antropogen ta'sir, baliq populyatsiyasi, biologik xilma-xillik, muhofaza choralari, sun'iy ko'paytirish, Orol dengizi, Sirdaryo havzasi.

Аннотация. В водоемах Узбекистана обитают редкие и исчезающие виды рыб, большинство из которых находится под угрозой исчезновения из-за антропогенных факторов и экологических проблем. В данной работе обсуждается биологическое разнообразие рыб бассейнов Аральского моря, Амударьи и Сырдарьи, их охрана от вымирания, проблемы и пути решения. Особое внимание уделяется обеспечению стабильности региональных экосистем путем защиты редких видов рыб.

Ключевые слова: Амударьинский осетр, амударьинский осетр, охрана окружающей среды, водные ресурсы, антропогенное воздействие, популяция рыб, биологическое разнообразие, меры охраны, искусственное воспроизводство, Аральское море, бассейн Сырдарьи.

Annotation. The water bodies of Uzbekistan contain rare and endangered fish species, most of which are endangered due to anthropogenic factors and ecological problems. In this work, biological diversity of fishes of the Aral Sea, Amudarya and Syrdarya basins, their protection from extinction, problems and solutions are discussed. Special emphasis is placed on ensuring the stability of regional ecosystems by protecting rare fish species.

Keywords: Amudarya sturgeon, Amudarya sturgeon, environmental protection, water resources, anthropogenic impact, fish population, biological diversity, conservation measures, artificial reproduction, Aral Sea, Syrdarya basin.

KIRISH

O'zbekiston Markaziy Osiyo hududida joylashgan bo'lib, turli xil ekologik sharoitlarga ega. Respublikadagi Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryo havzalari, shuningdek, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv resurslari noyob baliq turlarini o'z ichiga oladi. Ushbu suv ekotizimlari faqat mahalliy ekotizim uchun emas, balki butun dunyo uchun katta ahamiyatga ega. Ammo antropogen ta'sir, suv resurslarining kamayishi va iqlim o'zgarishi oqibatida ko'plab baliq turlari yo'qolib ketish xavfi ostida.

FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
www.academicsbook.com

Vol: 1 Issue: 3 (2024)

ASOSIY QISM

1. O‘zbekistonning noyob va yo‘qolib borayotgan baliqlari.

Amudaryo sumbali (*Pseudoscaphirhynchus hermanni*) yoki Amudaryo soxta kurakburuni: Bu baliq endemik bo‘lib, faqat Amudaryo va uning irmoqlarida uchraydi. 1996 yildan beri Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining (IUCN) Qizil ro‘yxatiga kiritilgan.

Amudaryo sturgoni (*Pseudoscaphirhynchus kaufmanni*): Sanoat va qishloq xo‘jaligi oqibatida daryo oqimlarining o‘zgarishi natijasida soni keskin kamaygan.

O‘rdak baliq (*Sabanejewia aurata aralensis*): Orol dengizi havzasida yashovchi noyob turni tashkil qiladi. Orol dengizining qurishi bu baliqning yashash sharoitini izdan chiqardi. Orol qashqaldoqi (*Barbus brachycephalus*): Yashash joylarining yo‘qolishi va baliq ovlash sababli bu turning populyatsiyasi kamaymoqda.

2. Yo‘qolish xavfi sabablari.

Ekotizim o‘zgarishlari: Suv havzalari yo‘qolishi, quritish ishlari va daryolarning to‘g‘onlanishi.

Antropogen ta’sir: Haddan tashqari baliq ovlash va qishloq xo‘jaligi chiqindilari bilan suvlarning ifloslanishi.

Iqlim o‘zgarishi: Suv haroratining ko‘tarilishi va suv resurslarining kamayishi, baliqlar yashash sharoitiga salbiy ta’sir qiladi.

3. Muammolarni hal qilish yo‘llari.

Qonunchilik va nazoratni kuchaytirish: Noyob baliqlarni muhofaza qilish uchun milliy qonunlarni kuchaytirish va xalqaro konvensiyalarni amalga oshirish.

Sun’iy ko‘paytirish dasturlari: Baliq populyatsiyalarini saqlab qolish maqsadida maxsus inkubatorlar tashkil qilish va baliqlarni ko‘paytirish.

Suv resurslarini boshqarish: Suvning ifloslanishini kamaytirish va suv oqimlarini tabiiy holatga qaytarish choralar.

Ilmiy tadqiqotlar: Baliqlar populyatsiyasi va ularning yashash muhitini o‘rganish uchun tadqiqotlarni kengaytirish.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi asosini sug‘oriladigan dehqonchilik tashkil etishi sababli oxirgi 10 yilliklar mobaynida sug‘oriladigan maydonlarni kengaytirish maqsadida Mirzacho‘l, Jizzax, Qarshi va Surxon – Sherobod cho‘llari, Farg‘ona vodiysining markaziy qismi sug‘orish tufayli o‘zlashtirilgan, natijada hududlarda ekologik vaziyat tubdan o‘zgardi. Tekisliklardagi yirik daryolar o‘zanlarida ham tabiiyki o‘zgarishlar kuzatildi. Daryolar oqimining sun’iy ravishda o‘zgarishi, yirik suv omborlari, irrigatsiya tizimlarining qurilishi, daryolarning yuqori qismlarida suvning tog‘-kon sanoati ehtiyoji uchun ishlatilishi, suv havzalarining ifloslanishi va chetdan keltirilgan baliq turlarining

FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

www.academicsbook.com

Vol: 1 Issue: 3 (2024)

salbiy ta'siri mahalliy ixtiofaunaga xavf solmoqda. Noyob va yo'qolib borayotgan baliq turlarini himoya qilish uchun avvalambor ularni o'z hududida tarqalishi, populyatsiyalarini holati, qanchalik kamayish xavfida turganini bilish lozim. Zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlari, ilg'or informatsion texnologiyalarni tashkil topishi, turli tabiiy landshaftlardagi noyob baliqlar holati haqidagi aniq ma'lumotlarni yetkazishni talab qilmoqda.

XULOSA

O'zbekistonning noyob va yo'qolib borayotgan baliq turlarini muhofaza qilish ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshirilgan chora-tadbirlar baliqlarni saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. IUCN Red List of Threatened Species. (<https://www.iucnredlist.org>)
2. Karimov, B. K. (2020). "O'zbekiston ichki suv resurslarining biologik xilma-xilligi." Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Rustamov, A. K. (2018). "Amudaryo va Sirdaryo havzalari ekologiyasi." Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
4. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi (2019).
5. O'zbekiston Qizil kitobi. 2- jild. Toshkent: Chinor ENK, 2019 - B.106-123. 2. O'zbekiston Qizil kitobi.
6. Худойназаров, Ф. X. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. International scientific journal of Biruni, 3(2), 178-186.
7. Окбаева, Н. (2022). Матрицы и детерминанты из биномиальных, обобщенных биномиальных коэффициентов. Science and Education, 3(4), 33-41.
8. Бабажанов, Ю., Окбаева, Н., & Бабажанова, И. (2019). Метод Определения Коэффициента Эффективности Газопровода. In Актуальные проблемы математики и информатики: теория, методика, практика (pp. 58-59).
9. Окбоева, Н. (2018). Уравнение Лапласа И Гармонические Функции. In Фундаментальные научные исследования (pp. 63-66).
- 10.Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. Экономическое развитие и анализ, 1(8), 109-114.
- 11.Chen, Z., Xie, M., Zu, Q., & Abdufattokhov, S. (2023). Electrical Automation Intelligent Control System Based on Internet of Things Technology. Electrica, 23(2).
- 12.2-jild. Toshkent: Chinor ENK, 2009 - B.6-20, 93-112.